

Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 180 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 165 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 554,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 128,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 357,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 228,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,6 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 920,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 187,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 925 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 915 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 279,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 27,2 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 576,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 25 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Uchqo'rg'on (238,1%), Uychi (178,4 %) va Chortoq (154,7 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 315 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 310 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 567,9 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



2025-y.

2026-y.



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.